

MARAKZLASHTIRILGAN INVESTITSIYALARGA XARAJATLAR

РАСХОДЫ НА ЦЕНТРАЛИЗОВАННЫЕ ИНВЕСТИЦИИ

EXPENDITURE ON CENTRALIZED INVESTMENTS

Qiyomiddinov Azizzon Shovkat o'gli

O'zbekiston Respublikasi Bank - moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Maqolada budget tizimida moliyalashtirish jarayoni yoritilgan. Budget xarajatlarining umumiylashtirishini, xarajatlar smetasini tuzish, tasdiqlash, yuritish kabi budget jarayoni tahlil qilingan. Markazlashtirilgan investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilingan. Markazlashtirilgan investitsiyalarga xarajatlarning hajmini oshirish, ushbu moliyalashtirish yo'naliшining samaradorligini oshirish uchun takliflar va xulosalar berildi.

Kalit so'zlar: budget, xarajatlar smetasi, budget yili, daromadlar, investitsion jozibadorlik

Аннотация: В статье описывается процесс финансирования в бюджетной системе. Анализируются общая классификация бюджетных расходов, бюджетный процесс, такой как подготовка, утверждение и управление сметой расходов. Анализируется экономическая эффективность централизованных инвестиций. Даны предложения и выводы по увеличению объема расходов на централизованные инвестиции, повышению эффективности данного направления финансирования.

Ключевые слова: бюджет, смета расходов, бюджетный год, доход, инвестиционная привлекательность.

Abstract: The article describes the process of financing in the budget system. The general classification of budget expenses, the budget process, such as preparation, approval, and management of cost estimates, are analyzed. Economic efficiency of centralized investments is analyzed. Proposals and conclusions were given to increase the volume of expenditures on centralized investments, to increase the efficiency of this financing direction.

Key words: budget, cost estimate, budget year, income, investment attractiveness

Kirish

Mavzuning dolzarbliligi shundan iboratki, mamlakatning investitsion muhitini barqarorligi iqtisodiyotning eng asosiy yo'naliшlaridan biri hisoblanib, uni davlat budgeti orqali moliyalashtirish qismi iqtisodiy muhitning asosiy institutlari hisoblanadi. Markazlashgan investitsiyalarga davlat budgeti xarajatlari davlatdagi ijtimoiy sohalarni, iqtisodiy infratuzilmalarni, muhandislik-komunikatsiya sohalarini tashkil qilish, mavjudlarini ta'mirlash va modernizatsiyalash salohiyatini tahlil qiladi. Ushbu sohalarning barqarorligini, iqtisodiy naflilagini oshirish uchun budgetdan moliyalashtirishning rentabilligini oshirish kerak. Mazkur sohalarning respublika bo'ylab ko'lamenti kengaytirilmasa, xalqaro standartlarga mos ravishda modernizatsiyalashtirilmasa iqtisodiyotda jiddiy to'siqlar, muammolar yuzaga keladi.

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil etish natijasida budget daromadlari, xarajatlari, budgetdan moliyalashtirish usullari, tamoyillari va shakllari bo'yicha bir qator olimlar va mutaxassislar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, iqtisodchi olimlar B.Mamatov, D.Xujamkulov, O.Nurbekovlarning "Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish" nomli darsligida investitsiyalar va investitsion faoliyatning iqtisodiy mazmuni, investitsiya faoliyatini rivojlantirishga investitsiya siyosati va investitsya turlari yoritib berilgan.[1]

Shuningdek, R.X.Karlibayevning "Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish" nomli darsligida investitsiyalarning iqtisodiyotda tutgan o'rni, investitsion faoliyatning moliyalashtirish manbalari, investitsion bozor tarkibi va uning bo'g'lnlari, investitsiyalarning samaradorligini baholash mezonlari, portfelli investitsiyalar va ularning daromadlilagini aniqlash, investitsion faoliyatdagi mayjud risklari kabi masalalar tahlil qilingan.[2]

Z.I.Ruziyev, O.G'.Abdullayevlarning ilmiy tadqiqot ishida budget taqsimotida ta'lim xarajatlarining ulushi, moliyaviy munosabatlar, budget tizimi haqida ma'lumotlar berilgan.[3]

X.Y.Majidov Z.J.Murtazaevlarning ilmiy tadqiqot ishida budget tashkilotlari xarajatlarini smeta asosida rejalashtirishirishning ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan.[4]

Tahlil va natijalar

Davlatning investitsiya faoliyati, davlat o'z funksiyalarini bajarish jarayonida vujudga keladi, ya'ni, iqtisodiy, mudofaa, huquqni himoya qilish, islohotchilik, ekologik, ijtimoy va boshqalar. Investitsiya faoliyati orqali davlat iqtisodiyotining tarkibiy qayta qurilishiga real ta'sir ko'rsatadi. Xalq xo'jaligi samaradorligining o'sishini, alohida tarmoq va hududlarni rivojlantirishdagi to'siqlarni yo'q qilishni ta'minlaydi.1

Davlat budjeti mablag'i hisobidan moliyalashtiriladigan davlatning markazlashgan kapital qo'yilmalari faqat quyidagilarga ajratiladi:

- respublika iqtisodiyotini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha investitsiya loyihibarini davlat maqsadli dasturlarni va davlatlararo bitimlarni amalga oshirishga;
- egasining nomi ko'rsatilgan uy-joy obligatsiyalari bo'yicha uy-joy qurilishiga;
- aholi yashaydigan joylar, birinchi navbatda, yakka tartibda qurilgan uy-joy mavzelarining muhandislik infratuzilmasini rivojlantirishga;
- yangi yerlarni o'zlashtirish va sug'oriladigan yerlarni tiklashga, suv xo'jaligi qurilishi va kichik gidroenergetikani rivojlantirishga;
- maorif, sog'liqni saqlash, madaniyat va ijtimoiy infratuzilmaning boshqa tarmoqlari ob'yektlar qurilishiga;

1 R.X.Karlibayeva - "Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish" nomli darslik, Toshkent, 2011, 124 bet

<http://arm.sies.uz/wp-content/uploads/2020/11/23-y-Investitsiyalarni-tashkil-etish-va-moliyalashtirish.-Oquv-qollanma.-R.X.-Karlibayev.-T-2011-.pdf>

Ilmiy elektron jurnali


- davlat boshqaruv organlari, huquqni muhofaza qilish organlari, davlat ilmiy muassasalarining ilmiy texnika bazasini rivojlantirishga va mustahkamlashga;
- umum davlat tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirishga va tabiiy ofatlardan himoya qilish inshootlarni qurishga.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasining "Tiklanish va taraqqiyot" jamg'armasining davlat investitsiya dasturiga kiritilgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga sarflayotgan mablag'larining hajmi ortib borishini, ularning markazlashgan investitsiya mablag'lari hamda jami kapital qo'yilmalardagi ulushi tushib borayotganini kuzatishimiz mumkin. Buning asosiy sababi investitsiyaga yo'naltirilayotgan kapital qo'yilmalarning hajmini ortishi hamda ularning tarkibida markazlashmagan mablag'larning ulushini oshishi bo'lmoqda.

Davlat rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish uchun yo'naltiriladigan xarajatlar:

2022-yil uchun davlat budgeti loyihasida markazlashgan kapital qo'yilmalar uchun 23,2 mlrd so'm yoki YaIM ga nisbatan 2,8 foiz miqdorida ko'zda tutilgan.

Markazlashgan kapital qo'yilmalarning YaIM dagi ulushi




1-rasm. 2022- yilda YaIM tarkibidagi markazlashgan kapital qo'yilmalari ulushi²

Budgetnomada keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra davlat budgeti mablag'lari hisobidan Investitsiya xarajatlari doirasida quyidagilar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan:

2 <https://www.gazeta.uz/oz/2021/11/11/budget-project/>

Mablag' lardan foydalanish yo'nalishlari



2-rasm. 2022-yilda davlat budjeti mablag'lari hisobidan Investitsiya xarajatlari doirasida ulushi³

Xulosa qilib shuni takidlash lozimki, davlat budgetining xarajatlari yildan yilga o'smoqda. Shunga mos ravishda davlat budgetidan markazlashgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish xarajatlari ham o'smoqda. Lekin davlat budgetidan markazlashgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish xarajatlarini davlat budgetining umumiyligi xarajatlaridagi ulushi kam foizni tashkil qiladi. Davlatning moliyalashtirish salohiyatini rivojlantirish natijasida markazlashgan investitsiya mablag'lari orqali moliyalshtiriladigan yo'nalishlarni hajmini ko'paytirishga, provardida iqtisodiy muhit barqarorligini oshirishga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar tahlili

1 B.Mamatov, D.Xujamkulov, O.Nurbekov - “Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish” nomli darslik, Toshkent, 2014, 610 bet

<http://em.tiame.uz/storage/web/source/1/elektron%20kutubxona/15-99%20Investitsiyalarni%20tashkil%20etish%20va%20moliyalashtirish.pdf>

2 R.X.Karlibayeva - “Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish” nomli darslik, Toshkent, 2011, 124 bet

<http://arm.sies.uz/wp-content/uploads/2020/11/23-y-Investitsiyalarni-tashkil-etish-va-moliyalashtirish.-Oquv-qollamma.-R.X.-Karlibayev.-T-2011-.pdf>

3 Z.I.Ruziyev, O.G'.Abdullayev – “Budget taqsimotida ta’lim xarajatlarining ulushi” ilmiy maqola, International scientific-online conference, 2022, 5 bet

3 Sh.Latipov – “2022- yilda budjet xarajatlari”, 2021 <https://www.gazeta.uz/oz/2021/11/11/budget-project/>

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6111969>

4 X.Y.Majidov Z.J.Murtazayev – “Budget tashkilotlari xarajatlarini smeta asosida rejalshtirishshtirishning o‘ziga xos xususiyatlari” nomli ilmiy maqola, “Science and Education” ilmiy jurnal, 2022, 12 bet

<file:///C:/Users/user/Downloads/byudjet-tashkilotlari-xarajatlarini-smeta-asosida-rejalshtirishshtirishning-o-ziga-xos-xususiyatlari.pdf>

5 Sh.Latipov – “2022- yilda budjet xarajatlari”, 2021

<https://www.gazeta.uz/oz/2021/11/11/budget-project/>